

TALABALARNI MA'NAVIY – AXLOQIY QADRIYTLAR ASOSIDA HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH METODLARI

Elboboyev Yashin Komil o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22100319>

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – talabalarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorati va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma'naviy-axloqiy, jangovor ruh va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan usul va uslublarni yoritilgan. Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna hisoblanishi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadiishi aks etgan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, veb-sayt, gumanistik, scenario-based learning, Narrative pedagogy, Service-learning, Problem-based learning, omil, vosita, yondashuv.

Аннотация. В данной статье освещаются методы воспитания студентов в духе военно-патриотического воспитания на основе духовно-нравственных ценностей. Рассматриваются методы и приёмы, направленные на формирование у студентов необходимых жизненных знаний, умений, навыков, профессионального мастерства и твёрдой воли, а также высоких духовно-нравственных качеств, боевого духа и гражданской ответственности, оказывающие влияние на их сознание, мировоззрение, психологическое состояние и практическую деятельность. Отмечается, что

основными методами воспитания студентов в духе военно-патриотического воспитания на основе духовно-нравственных ценностей являются убеждение, упражнение и самостоятельная работа, наблюдение, поощрение, демонстрация положительного примера и личный пример. Подчёркивается также, что использование современных педагогических подходов в процессе воспитания студентов в духе военно-патриотического воспитания на основе духовно-нравственных ценностей имеет особое значение.

Ключевые слова: исследование, веб-сайт, гуманистический подход, scenario-based learning, narrative pedagogy, service-learning, problem-based learning, фактор, средство, подход.

Abstract. This article examines methods of fostering military patriotism among students based on spiritual and moral values. It highlights methods and instructional approaches aimed at developing students' essential life knowledge, skills, competencies, professional proficiency, and strong will, as well as cultivating high spiritual and moral qualities, fighting spirit, and civic responsibility, thereby influencing their consciousness, mindset, psychological state, and practical activities. The article identifies persuasion, practice and independent learning, observation, encouragement, role modeling, and personal example as the principal methods of educating students in the spirit of military patriotism on the basis of spiritual and moral values. It also emphasizes that the use of modern pedagogical approaches in this educational process is of particular importance.

Keywords: research, website, humanistic approach, scenario-based learning, narrative pedagogy, service-learning, problem-based learning, factor, means, approach.

Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – talabalarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorati va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma'naviy-axloqiy, jangovor ruh va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan usul va uslublarni anglatadi. Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar

asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna hisoblanadi:

Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi va ular ma'naviy ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

-boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

-ilmiy-nazariy va amaliy konferentsiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

-to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

-jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish; teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, OAV, veb-saytlar va elektron o'yinlar, turli gadjetlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

-urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va jamoat tashkilotlari, jamg'armalar vakillari bilan uchrashuvlar;

-harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlari va ekskursiyalar.

Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan maqsad o'z ona yurtini sevadigan, xalqiga dadil fidoyi, bunyodkorlik va farovonlik yo'lida unga o'z mehnati bilan xizmat qilishga, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyor Vatanparvar shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Yangi O'zbekiston talabalarini ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari:

1. Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish;
2. Milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik bilimi, e'tiqodi, shaxsiy fikri va xarakterini takomillashtirish;
3. Vatanparvarlik xarakteridagi mustaqil faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, "Vatanparvarlik" tushunchasi mazmuniga quyidagi tarkibiy qismlarni kiritish qonuniydir:

- Vatanga, ona yurtga, ona tiliga muhabbat;
 - o'z Vatanining o'tmishiga, o'z xalqining an'ana va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, Vatan tarixini bilish, mamlakat oldida turgan vazifalarni va vatanparvarlik burchini tushunish;
 - boshqa xalqlarga, ularning urf-odatlari va madaniyatiga hurmat, irqiy va milliy adovatga toqat qilmaslik;
 - Vatan sha'ni va qadr-qimmatini mustahkamlashga intilish, armiyaga hurmat va Vatanni himoya qilishga tayyorlik;
 - Vatan manfaatlariga xizmat qilishga tayyorlik, shaxsiy va jamoat manfaatlarini uyg'unlashgan holda mehnat faoliyatida faol va ongli ishtirok etish.
- Pedagogik olim Sh.Shodmonova "Yosh avlodda vatanparvarlik, axloq-odob, milliy mafkura, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga e'tibor berish zamon talabiga aylanganligini, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'ulari milliy qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchalar bo'lib, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mezonlari" degan xulosaga keladi.

Talabalarni yanada Vatanni sevishga va unga sadoqat bilan xizmat qilishlarida ko'plab vatanparvarlik oyligi doirasida o'tkaziladigan tadbirlarning ahamiyati va o'rni beqiyos. "Kim o'z vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas". Hozirgi kunda, ya'ni jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim;

talabalarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va

millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish, ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirish;

turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash;

ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish, din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning asosi, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekanligining yurtdoshlarimiz ongiga singdirib boorish;

ommaviy axborot vositalarida milliy ma'naviyatimiz aks etgan turli xil sifatli hamda qiziqarli raqobatbardosh ko'rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e'tiboriga taqdim qilish;

raqobatbardosh telekanallarni ko'paytirib, haqiqiy raqobat maydonini vujudga keltirish;

internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko'paytirish hamda talabalarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g'oyalarni singdirib borishni ta'minlash;

jamiyatda ma'naviyatni takomillashtirish imkoniyatlari va istiqbollari mavzuida ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash zarurdir.

Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobini ezgulik sari yetaklaydi. Shu nuqtai nazardan XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko'p jihatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, talabalarimizning intellektual savodxonligiga, ular ongida va qalbida milliy g'oyaning shakllanganligiga bog'liqdir "Vatanparvarlik — yolg'iz o'z vataniga

mehr qo'yishdan iboratgina emas. Shuningdek, "Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo'lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan real ruhiy qudratdir".

Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagi tuzilmalarni qamrab oladi:

Ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim va asosiy bo'g'ini bo'lgan bolalar bog'chasidan boshlab ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari; ommaviy va harbiy vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, Qurolli Kuchlar tuzilmalari, mudofaa ishlari boshqarmalari, harbiy qismlar va muassasalar, huquq- tartibot organlari, faxriylar kengashlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilmalari va boshqa tashkilotlar.

Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning omil va vositalari tizimi. Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – talabalarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorati va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma'naviy- axloqiy, jangovar ruh va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan usul va uslublarni anglatadi. Tarbiyada pedagogik omil va vositalar orqali uning mazmuni shakllantiriladi, takomillashtiriladi. Zero, tarbiya mazmuni juda muxim ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy-ruxiy, ma'rifiy-falsafiy hodisadir. Qolaversa, u inson va jamiyat kelajagini belgilashda, to'g'ri yo'l sari yo'naltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Mazmunsiz hayot cho'lu-biyobonlardagi yalanglik, bo'shlik kabidir. Ayniqsa, inson va jamiyat taraqqiyotida tarbiya, xususan harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asosiy o'rinni egallaydi. O'zaro qarama-qarshilik, o'zaro tahdid, xavf-xatar singari muammolar sodir bo'lib turishi barcha tirik mavjudotlarga hos jarayonlardir.

Shuning uchun har bir inson, har bir xalq, har bir davlat o'z uyini, o'z mamlakatini himoya qilishga tayyor turushi azaliy an'anadir.

Demak, ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi xayot va turmushning yuksak harbiy qonuniyatidir. Bizdan oldin o'tgan ajdodlarimiz, milliy qaxramonlarimiz, buyuk sarkarda-yu davlat arboblari qonuniyatga to'liq amal qilgan holda yurgizgan siyosatlari mazmuni hozirgi yosh avlod uchun ibratlidir. Hozirgi kunda milliy armiyaning kuch-qudratini oshirish, uning xalq ommasi bilan aloqasini yanada mustaxkamlash, talabalarda ongli va xohish irodasi bilan harbiy xizmat tuyg'ularini shakllantirish, umumlashtirib aytganda, talabalarda harbiy vatanparvarlik his-tuyg'ularini tarkib toptirish va mustahkamlash, professionalizmni ta'minlash bilan bog'liqdir.

Harbiy an'analar, qadriyatlar va ularning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi omillari sifatida xizmat kilishi xususida nazariy fikrlar bildirilgan edi. Shu o'rinda bir narsani aloxida ta'kidlash lozimki, xalqqa manzur bo'lgan, ularning ruhiga kirib ketgan, ularga doimiy ravishda foyda keltiradigan marosimlar, tadbirlar an'anaga aylanib ketishi mumkin. Chunonchi: Armiyaga chakiruv va kuzatish, turli harbiy mashqlar, Vatan himoyachilari kunini nishonlash va shu kabilar. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, harbiy an'analarga nisbatan xalq e'tibori kattadir. Harbiy vatanparvarlik tarbiya bir kunda yoxud bir xaftada yuzaga chiqadigan narsa emas. Uning natijasini ko'rish uchun ancha vaqt talab qilinadi.

Talabalarda topshirilgan vazifalarga mas'uliyat, ishchanlik va tadbirkorlik azaliy odatga aylanganki, bu ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan sharqona odatdir, qadriyatdir. Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning axloqiy-harbiy mazmuni va yo'nalishi Vatanga, xalqqa, ma'naviy axloqiy qadriyatga, Qurolli Kuchlariing tarixiy jangovar an'analarga sodiqlik ruxida tarbiyalashdir. Shuningdek, talabalarda, harbiy xizmatchilarda, harbiy bilim yurtlari kursantlarida harbiy va davlat sirlarini saqlash malakalarini hosil qilish va hushyorlik ko'nikmalarini shakllantirish harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ishlarida muxim va asosiy o'rinni egallaydi. Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida

harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning boshqalardan farqli o'laroq asosiy shakllari bo'lib, ularning barchasi Vatan ximoyasiga, ma'naviy-ruxiy, axloqiy-siyosiy, falsafiy-psixologik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda, birinchi navbatda, talabalar tarbiya obyektida asosiy rolni o'ynaydilar.

Talabalarda ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va ularning bu yo'nalishdagi dunyoqarashini kengaytirish, harbiy va mustaqillik tafakkurini tarbiyalash, harbiy xizmat odobini mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish uchun tarbiyaning o'ta ta'sirchan va samarali shakllaridan biri. Talabalarni ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yana bir turkum shakllari mavjudki, bunda tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyatlari talabalar ongiga ta'sir qilishning turli xil usullaridan kompleks foydalanish bo'lib, shu tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda talabalarning o'zlari faol qatnashadilar. Talabalarda ma'naviy axloqiy qadriyatlar asosida harbiy vatanparvarlik sifatlarni shakllantirish metodlaridan eng asosiysi ishonch va e'tiqoddir.

Uning tub mohiyati ongga, his-tuyg'ularga faol ta'sir o'tkazish orqali talabalarni Vatan ximoyasi to'g'risida to'g'ri fikrlashga, harbiy vatanparvarlik haqidagi g'oyalariga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga, harbiy xizmatda, mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishga ongli munosabatni shakllantirish va tarbiyalashdan iboratdir. Talabalarda ishonch-e'tiqodni tarkib toptirish bugungi kunning asosiy muammosidir. Zero, insonda vujudga kelgan, uning jon-joniga singib ketgan ishonchni so'ndirish va yo'qotish amri mahol. Kishidagi bu ishonch o'rganish, mantiqiy taxlil qilish va umumlashtirish natijasida tobora kuchayib borishi mumkin. Umuman, inson ishonchsiz yashay olmaydi. Shu yerda talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi mezonlari masalasi ko'tariladiki, ular asosida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonining sifati xaqida aniq bir fikrga kelish va xulosa chiqarish mumkin.

Talabalarni har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishi, harbiy xizmat uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni egallashi quyidagicha:

1. Yuksak harbiy ta'lim intizomga o'rgatib borish.
2. Talabalarga bevosita harbiy vatanparvarlik faoliyati haqida malumotlar ulashish.
3. Harbiy kasbni ongli va ixtiyoriy ravishda tanlashi hamda xizmat burchi va majburiyatlarini benuqson bajarishga o'rganishi.
4. Har qanday xolat va vaziyatda mohirlik va jasurlik bilan harakat qilishga tayyorgarlikni o'rganishi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday yondashuvlardan biri — **scenario-based learning (vaziyatli modellashtirish)** metodi bo'lib, u talabalarning real hayotga yaqinlashtirilgan vaziyatlar asosida fikrlashi, qaror qabul qilishi va o'z pozitsiyasini shakllantirishiga xizmat qiladi. Mazkur metod orqali ta'lim jarayoni nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etuvchi, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantiruvchi hamda fuqarolik va vatanparvarlik mas'uliyatini chuqurlashtiruvchi muhitga aylantiriladi. Ushbu metod doirasida talabalar turli ijtimoiy, axloqiy va harbiy mazmundagi vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarda muqobil yechimlarni ishlab chiqish va eng maqbul qarorni tanlash jarayonida ishtirok etadilar. Bu esa ularda adolat, sadoqat, mas'uliyat, jasorat kabi fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik mazmunidagi vaziyatlar — vatan himoyasi, jamoaviy qaror qabul qilish, liderlik, xavfsizlikka oid holatlar — talabalarning ichki e'tiqodi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Scenario-based learning metodining samaradorligi uning turli o'qitish shakllari bilan uyg'un holda qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Interaktiv shakllar (flipped classroom, workshop, masterclass) talabalarni oldindan tayyorlanib kelishga va dars jarayonida faol muhokamada ishtirok etishga undaydi. Ijtimoiy-faol

shakllar (klublar, ochiq muloqotlar, tematik haftaliklar) esa vaziyatlarni kengroq ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqish imkonini beradi. Tajriba asosidagi shakllar (simulation, role-play) orqali talabalar vaziyatni amaliy jihatdan his etib, unda faol qatnashadi. Raqamli shakllar (online forum, webinar, virtual sayohatlar) esa zamonaviy axborot muhiti orqali o'rganish jarayonini boyitadi.

Mazkur metodni samarali tashkil etishda turli pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar (YouTube, LMS platformalar, Kahoot, VR/AR texnologiyalar) vaziyatlarni vizual va interaktiv tarzda taqdim etadi. Ma'naviy-ma'rifiy vositalar (badiiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, milliy qahramonlar hayoti) orqali vaziyatlarning mazmuni chuqurlashtiriladi. Didaktik vositalar (keysarlar, reflektiv kundaliklar, kompetensiya xaritalari) talabalar faoliyatini tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Tashkiliy vositalar (reyting tizimi, rag'batlantirish, portfolio) esa talabalarni motivatsiyalash va ularning rivojlanishini monitoring qilishga xizmat qiladi.

Narrative pedagogy (hikoya asosida o'qitish) metodi talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy mohiyati bilim va tarbiyaviy ta'sirni oddiy tushuntirish orqali emas, balki mazmunli hikoyalar, tarixiy voqealar va qahramonlar hayoti misolida yetkazishdan iborat. Bu esa talabalar ongida chuqur hissiy ta'sir uyg'otib, o'rganilayotgan qadriyatlarni ichki e'tiqodga aylantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvda milliy qahramonlar hayoti muhim tarbiyaviy manba sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Amir Temurning hayoti va faoliyati orqali talabalarga intizom, strategik tafakkur va Vatanga sadoqat tushunchalari singdiriladi. Jaloliddin Manguberdi obrazida esa jasorat, matonat va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi yuksak fazilatlar aks etadi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti esa ilmga intilish, sabr-toqat va murakkab sharoitlarda ham maqsad sari intilishning yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu qahramonlar haqidagi hikoyalar

talabalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi.

Narrative pedagogy metodida tarbiya jarayoni odatda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Avvalo, o'qituvchi qahramon hayotidan muhim va ta'sirchan voqeani hikoya qiladi. Bu bosqichda asosiy e'tibor talabalarda qiziqish va hissiy munosabat uyg'otishga qaratiladi. Keyingi bosqichda talabalar ushbu hikoyani tahlil qiladi, qahramonning qarorlari, xatti-harakatlari va ularning sabablari muhokama qilinadi. Bu jarayon talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shundan so'ng hikoyadan kelib chiqadigan asosiy qadriyatlar ajratib olinadi. Ya'ni talaba qahramon faoliyati orqali qanday ma'naviy-axloqiy fazilatlar namoyon bo'lganini anglaydi. Eng muhim bosqichlardan biri esa — bu talabaning o'zini qahramon bilan qiyoslab ko'rishi, ya'ni identifikatsiya jarayonidir. Bu orqali talaba o'z hayotida qanday yo'l tutishi kerakligini anglaydi va o'rganilgan qadriyatlarni ichki e'tiqod sifatida qabul qiladi. Yakuniy bosqichda esa olingan bilim va qadriyatlar amaliy faoliyatda mustahkamlanadi. Bu esse yozish, sahna ko'rinishlari, bahs-munozaralar yoki muammoli vaziyatlarni hal etish orqali amalga oshiriladi. Natijada talabalar nafaqat tarixiy bilimga ega bo'ladi, balki ularni hayotda qo'llay oladigan, Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan, mas'uliyatli va vatanparvar shaxs sifatida shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, narrative pedagogy metodi orqali milliy qahramonlar hayoti asosida qadriyatlarni shakllantirish talabalarda harbiy-vatanparvarlik ruhini rivojlantirishning samarali, ta'sirchan va chuqur pedagogik usuli hisoblanadi.

Service-learning (xizmat orqali o'qitish) metodi talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi samarali yondashuvdir. Ushbu metodda talabalar nafaqat bilim oladi, balki jamiyatga foydali faoliyatda bevosita ishtirok etish orqali vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi. Mazkur yondashuvda milliy qahramonlar hayoti tarbiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Amir Temurning davlatga sadoqati, Jaloliddin Manguberding jasorati va Zahiriddin Muhammad Boburning matonati talabalarga ibrat sifatida beriladi. So'ng bu qadriyatlar amaliy

faoliyat orqali mustahkamlanadi. Service-learning metodida tarbiya jarayoni quyidagicha kechadi: avvalo talabalar qahramonlar hayoti va ularning fazilatlari bilan tanishadi. Keyin ular jamiyatga xizmat qiluvchi faoliyatga jalb etiladi, masalan, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish, yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, tarixiy obidalarni asrash yoki ijtimoiy loyihalarda qatnashish. Bu jarayonda talabalar o'z harakatlari orqali Vatanga foyda keltirish hissini boshdan kechiradi. Eng muhim jihati shundaki, har bir amaliy faoliyatdan so'ng talabalarda refleksiya, ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish jarayoni amalga oshiriladi. Ular "Men nima qildim?", "Bu jamiyatga qanday foyda berdi?", "Qaysi qadriyatlarni his qildim?" kabi savollar orqali o'z tajribasini anglaydi. Shu orqali ma'naviy-axloqiy qadriyatlar chuqurroq o'zlashtiriladi. Natijada talabalar nafaqat qahramonlar hayotini biladi, balki ularning fazilatlarini amalda qo'llay boshlaydi. Ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, fidoyilik va ijtimoiy faollik kabi sifatlar shakllanadi.

Problem-based learning (muammoli o'qitish) metodi talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki muammo yechuvchi va tanqidiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Ushbu metod ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda samarali bo'lib, talabalarga tarixiy voqealar yoki milliy qahramonlar hayoti asosida muammoli vaziyatlar yaratishga asoslanadi. Talabalar bu vaziyatlarni tahlil qilib, mustaqil qaror qabul qilish orqali vatanparvarlik, jasorat, fidoyilik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni chuqurroq o'zlashtiradi. O'qituvchi talabalarni milliy qahramonlar hayoti yoki tarixiy voqealar asosidagi muammoli vaziyat bilan tanishtiradi. Masalan, Jaloliddin Manguberdining dushmanga qarshi kurashdagi murakkab qarorlari yoki Amir Temurning strategik tanlovlari muammo sifatida beriladi. Talabalar qahramonlar hayoti, tarixiy sharoit va ularning harbiy-vatanparvarlik fazilatlari bo'yicha ma'lumot yig'adi. Shu jarayonda ular ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni aniqlab, muammoga tatbiq etishni o'rganadi. Talabalar turli yechimlarni muhokama qiladi va ularni asoslaydi. Masalan, "Agar siz Jaloliddin o'rnida bo'lsangiz, qanday qaror qabul qilgan bo'lardingiz?" Shu jarayon orqali

vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik qadriyatlari amaliy tahlil orqali shakllanadi. Talabalar tanlagan yechimlar asosida o'z xulqini va qarorlarini baholaydi. Bu bosqichda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ichki e'tiqodga aylanadi va real hayotga tatbiq etiladi. Talabalar o'z qarorlarini tahlil qiladi, qahramonlarning harakatlari bilan solishtiradi. O'qituvchi esa baholash va mulohaza orqali qadriyatlarning shakllanishini kuzatadi. Natijada talabalar nafaqat qahramonlar hayotini o'rganadi, balki ularning fazilatlarini amalda qo'llay boshlaydi. Ular vatanparvar, mas'uliyatli, jasur va fuqarolik burchini anglaydigan shaxs sifatida shakllanadi. Problem-based learning metodi milliy qahramonlar hayoti asosida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali, ta'sirchan va amaliy usuli hisoblanadi.

Digital Storytelling (raqamli hikoya yaratish) metodi talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali yondashuv hisoblanadi. Bu metodda talabalar milliy qahramonlar hayoti va ularning fazilatlarini raqamli vositalar yordamida hikoya qiladi. Shu tarzda tarixiy voqealar nafaqat o'rganiladi, balki hissiy va ma'naviy ta'sir orqali talabaning shaxsiy e'tiqodiga singadi. Jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: talabalar milliy qahramonlar hayoti, ularning harbiy va ma'naviy fazilatlarini haqida ma'lumot to'playdi. Masalan, Amir Temurning intizomi va strategik tafakkuri, Jaloliddin Manguberdining jasorati, Zahiriddin Muhammad Boburning sabr va bilimga intilishi. Talabalar o'rgangan voqealar asosida qisqa hikoya, video yoki prezentatsiya tayyorlaydi va shu jarayonda qahramonlarning fazilatlarini ijodiy tarzda ifodalaydi. Hikoya davomida jasorat, vatanparvarlik, fidoyilik, mas'uliyat va intizom kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ajratiladi va talaba ongida mustahkamlanadi. Talabalar tayyorlagan hikoyani sinf yoki guruh bilan baham ko'radi, muhokama qiladi va savollar orqali qadriyatlarni chuqurroq anglaydi. So'ng talabalar o'z hikoyasini tahlil qilib, qahramonlar fazilatlarini hayotiga qanday tatbiq etishini ko'rib chiqadi va vatanparvarlik hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni amalda qo'llashga o'rganadi. Natijada talabalar nafaqat qahramonlar hayotini

o'rganadi, balki ularning fazilatlarini amalda qo'llay boshlaydi va vatanparvar, mas'uliyatli, jasur va fuqarolik burchini anglaydigan shaxs sifatida shakllanadi. Digital Storytelling metodi milliy qahramonlar hayoti orqali ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy, interaktiv va samarali usuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyati: metodik qo'llanma. – Toshkent, 2021. – 124 b.
2. Shodmonova Sh. S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nomz. dis. / Sh. S. Shodmonova. -Toshkent: 2001. - 176 b.
3. Кутлугилдина Ю.З. Идея патриотического воспитания и национальной педагогики. – Казань: Казанский издательский дом, 2022. -111с.
4. Kasimova O. A. Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish //. [International scientific-online conference]. –Toshkent, 2022.
5. Кадирова Х. Ёшларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашда оилалар ва маҳаллаларнинг роли // Замонавий таълим / Современное образование –Тошкент, 2023. -№ 4 (125). - Б. 22-28.
6. Liston V. Digital Natives, Media and Learning: Implications for the Future of Army Training / V. Liston. – Dr. Liston V. Beyli, 2016. -112 p.
7. Mardonov Sh. K. Pedagogik kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. -Toshkent, 2006. - 45 b.
8. Mirkomilov B. Talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirish: Ped. fan. fals. dok. (PhD)...diss. –Toshkent, 2019. -168 b.
9. Nazarov Q. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). –Toshkent: Akademiya, 2011. -280 b.

10. Nazarov Q. O'zbek falsafasi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. - 364 b.
11. O'rinova P. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiya // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2022. - №5. – B. 12-16